

Toshkent-Seul-Toshkent yoʻnalishi boʻyicha qatnovlar bajarilishi

2021 12 Yanvar

Hurmatli Yoʻlovchilar!

2021-yil 24-fevraldan boshlab Koreya Respublikasi fuqarolari COVID-19ga joʻnab ketishdan oldin, kamida 72 soat ichida, Oʻzbekiston laboratoriyalaridan birida PZR usuli bilan amalga oshirilgan testning manfiy natijasini taqdim etishlari shart.

Koreyaga sayohat qilayotgan xorijiy fuqarolar, shu jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari ham, Koreyaning Oʻzbekistondagi elchixonasi tomonidan tasdiqlagan laboratoriyalardan birida parvozdan oldin, kamida 48 soat ichida PZR usuli bilan amalga oshirilgan COVID-19 testining manfiy natijalariga ega boʻlishi kerak. Maʼlumotnoma Koreyaning Oʻzbekistondagi elchixonasi muhri bilan tasdiqlangan boʻlishi lozim!

Shuningdek, Koreyaga Oʻzbekiston orqali havo transportida, chegarani kesib oʻtmasdan, tranzit bilan sayohat qilayotgan yoʻlovchilar ham, doimiy yashash mamlakatida COVID-19ga PZR usuli bilan oʻtkazilgan testning manfiy natijasi koʻrsatilgan maʼlumotnomaga ega boʻlishlari kerak.

1. Maʼlumotnomalar uchun umumiy qoida

Qoʻshimcha tariqasida shuni maʼlum qilamizki, quyidagi talablarga javob bermaydigan maʼlumotnomani taqdim etgan shaxs zarur maʼlumotnomani taqdim etmagan shaxs sifatida tan olinadi va Koreya respublikasi hukumati tomonidan belgilangan maxsus karantin muassasasiga 14 kunlik muddatga joylashtiriladi. (karantin muassasasida yashash xarajatlari karantin ostida boʻlgan shaxs tomonidan qoplanadi, 14 kun - 1 680 000 von)

Maʼlumotnomalar uchun umumiy qoida

1. PZR, LAMP, TMA, SDA usullari bilan o'tkazilgan tahlillar tan olinadi
1. Tahlil o'tkazish usuli
- *Virus genini (PCR, LAMP va boshqa) aniqlash usuli bilan o'tkazilgan tahlil natijalari tan olinadi.
- Antitanalarni (RAT, ELISA va boshqa) aniqlash usuli bilan o'tkazilgan tahlil natijalari tan olinmaydi.
- Ma'lumotnoma parvozdan oldin 72 soat ichida berilgan bo'lishi kerak
2. Tahlilni berish vaqti
- *Masalan: agar uchib ketish sanasi 2021-yil 10-mart soat 10:00 bo'lsa, faqat 2021-yil 7-mart soat 00:00dan keyin berilgan ma'lumotnomalar tan olinadi.
3. Ma'lumotnomada F.I.Sh.*, Tug'ilgan yili **, tahlil o'tkazish usuli, natijasi, berilgan sanasi, tahlilni o'tkazgan tashkilot nomi ko'rsatilishi kerak.
3. Ma'lumotnoma mazmuni
- * F.I.Sh. faqat ariza beruvchining pasportiga muvofiq ko'rsatilishi kerak
- ** tug'ilgan sana o'rniga pasport yoki ID-karta raqamini ham ko'rsatish mumkin
- Faqat "Manfiy" natijali ma'lumotnoma tan olinadi
4. Natija
- *"Noma'lum", "Musbat" va boshqa natijali ma'lumotnomalar tan olinmaydi.

Ma'lumotnoma koreys yoki ingliz tillarida berilishi kerak.

5. Berilgan ma'lumotnomani tili

*Ma'lumotnoma boshqa tilda berilgan bo'lsa, uning tasdiqlangan tarjimasini taqdim etilganda tan olinadi.

(Agar ma'lumotnoma mustaqil ravishda tarjima qilingan bo'lsa, u holda notarius yoki Elchixonona tomonidan tasdiqlanishi kerak.)

2. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun guvohnoma taqdim etish zaruriyati to'g'risidagi qoida

Yangi tug'ilgan chaqaloqlar yoki maktabgacha yoshdagi bolalarni kuzatib boruvchi barcha shaxslar belgilangan tartibda ma'lumotnomani taqdim etishlari shart, ammo yangi tug'ilgan chaqaloqlar va maktabgacha yoshdagi- 6 yoshgacha bo'lgan bolalar (mamlakatga kirish vaqtida) ma'lumotnomani taqdim etishdan ozod etiladi.

Toshkent-Seul yo'nalishi bo'yicha amaldagi vizasi mavjud xorijiy fuqarolarni tashish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

1 - Amaldagi kirish vizasi mavjudligi

2 - Yuqorida ko'rsatilgan kabi COVID-19ga manfiy test natijalari mavjudligi.

Shuningdek, ko'rsatilgan sanalarda Toshkentdan Inchiwon aeroporti orqali uchinchi mamlakatlarga tutash vaqti 24 soatdan kam bo'lgan qatnovlarda uchuvchi tranzit yo'lovchilarni tashish imkoniyati mavjud.

Oxirgi manzil yoki undan keyingi tranzit mamlakatlariga kirish qoidalariga rioya qilish uchun javobgarlik to'liq tranzit yo'lovchilari zimmasiga yuklatiladi.

Koreya Respublikasiga kelgandan so'ng, barcha yo'lovchilar PZR sinovidan o'tishlari va yashash joylarida 14 kunlik izolyatsiyadan bo'lishlari shart. O'zini izolyatsiya qilish joyi mavjud bo'lmagan taqdirda yo'lovchilar o'z mablag'lari hisobidan yashash uchun 2,100,000 KRW miqdorida pul sarflab maxsus karantin muassasalarida o'zini izolyatsiya qilishlari zarur.